



JAMOAT TARTIBIGA QARSHI JINOYATLAR TUSHUNCHASI VA TURLARI

O'lmasov Abdullajon Baxromjon o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
70420113 - Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi
va amaliyoti mutaxassisligi
2-kurs magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19968024>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 28- aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 30- aprel 2026 yil

KEY WORDS

A.V.Naumov, A.G.Kibalniklar ham jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni jamiyatda yurish-turish qoidalari va jamoat osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan munosabatlar sifatida qaraydilar..

ABSTRACT

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu borada ham olimlar o'z fikrlarini berib o'tgan bo'lib, jumladan, "jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar deganda, jamiyatda yurish-turish qoidalari va jamoat osoyishtaligini ta'minlash hamda munosib xulq-atvorda bo'lishga asoslangan jamoat tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan huquqqa xilof, aybli ijtimoiy xavfli qilmishlar" ekanligidir.

Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu borada ham olimlar o'z fikrlarini berib o'tgan bo'lib, jumladan, "jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar deganda, jamiyatda yurish-turish qoidalari va jamoat osoyishtaligini ta'minlash hamda munosib xulq-atvorda bo'lishga asoslangan jamoat tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan huquqqa xilof, aybli ijtimoiy xavfli qilmishlar" ekanligidir¹.

A.V.Naumov, A.G.Kibalniklar ham jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni jamiyatda yurish-turish qoidalari va jamoat osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan munosabatlar sifatida qaraydilar². A.T.Dalgali jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning kriminologik jihatlarini ochib berishga harakat qilib, uni jamoat xavfsizligiga doir jinoyatchilik bilan o'rganishni aytib o'tadi³.

V.M.Aliev va boshqa olimlar jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarni keng ma'noda tushunish kerakligini, unda jamiyatda yurish-turish qoidalarning barcha munosabatlarini kiritadi⁴.

¹ R.Kabulov, A. A.Otajonov, D.Yu. Payziyev va boshq. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / – T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. – 330 b.

² Преступления против общественной безопасности и общественного порядка : учебное пособие для вузов / А. В. Наумов [и др.] ; ответственные редакторы А. В. Наумов, А. Г. Кибальник. – 6-е изд., перераб. и доп. –Москва : Издательство Юрайт, 2024. –16 с.

³ Далгалы, Т. А. Преступления против общественной безопасности. Криминологический, международный и сравнительно-правовой аспекты : учебное пособие для вузов / Т.А.Далгалы, Д.Ж.Гостькова. –Москва : Издательство Юрайт, 2024. –12 с.

⁴ Уголовное право. Особенная часть: преступления против общественной безопасности и общественного порядка : учебник для вузов / В. М. Алиев [и др.] ; под общей редакцией В. И. Гладких, А. К. Есяяна. — Москва : Издательство Юрайт, 2024. — 32 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-

Sodir etilayotgan ko'pgina jinoyatlar jamoat tartibini buzib sodir etiladi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan ko'pgina moddalarda nazarda tutilgan jinoyatlari jamoat tartibini buzib sodir etiladi. Jumladan, bezorilik oqibatida qasddan badanga og'ir shikast etkazish (JK 104-modda, 2 qism "e" bandi), terrorizm (JK 155-modda), ommaviy tartibsizliklar (JK 244-modda), jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish (JK 244¹-modda), diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (JK 244³-modda), karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish (JK 244⁵-modda), yolg'on axborot tarqatish (JK 244⁵-modda), o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash (JK 247-modda), o'qotar qurolning, o'q-dorilar, o'qotar qurol asosiy qismlar, portlovchi moddalar, portlatish vositalarining yoki portlatish qurilmalarining qonunga xilof muomalasi (JK 248-modda), bezorilik (JK 277-modda), qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish (JK 278-modda), giyohvandlik vositalari yoki **psixotrop** moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar (JKning 270-276-moddalar) shular kabilar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XX bobida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, JKning 277-moddasida bezorilik va qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish (JK 278-modda) uchun javobgarlik nazarda tutilgan. "Bezorilik, ya'ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, badanga engil shikast etkazish yoki o'zganing mulkiga shikast etkazish yoxud nobud qilish ancha zarar etkazish bilan bog'liq holda sodir etilishi" nazarda tutilgan⁵.

Bezorilik – jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyat bo'lib, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslikda ifodalangan harakatlar shaxsni urish-do'pposlash, unga engil tan jarohati etkazish yoki o'zganing mulkiga ancha miqdorda shikast etkazish yoxud uni ancha miqdorda nobud qilish bilan bog'liq holda sodir etiladi"⁶.

Ilmiy adabiyotlarda "bezori" va "bezorilik" so'ziga turlicha tushintirishlar beriladi. Bir necha olimlarning fikricha bu so'z ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, XVIII asrda Londonda Irlandlik Xulli yashagan bo'lib bir qator to'dalarga qo'shilib to'polonlar qilgan. (Shayka, to'da, inglizchasiga gang) boshqalarning fikricha bezori atamasi qadimgi rus tilida xula va fransuz gens so'zlaridan kelib chiqqan. Bezori laqabi krepostnoy xristiyanlarga, xizmatkorlarga va boshqacha kamsitmoqchi bo'lgan shaxslarga berilgan. Uchinchi nuqtai nazar ham bor. R.I.Lyublinskiyning ahamiyat berishicha Parijda jamiyatning tinchligini buzganlarni apashi Londonda bo'lsa bezorilar deyishgan. Apashi va bezorilar Amerikadan ikkita qiziltanlilar, evropalik bosqinchilarning qarama-qarshi qarorlarini ko'rsatuvchilar bo'lib eng salbiy sifatini ifodalashgan. R.I.Lyublinskiyning fikricha ushbu ikki shaxslar Parijda va Londonda ijtimoiy odobni, tartibni va tinchlikni buzgan deb topilgan.

5-534-13708-8. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/543900>

⁵ <https://lex.uz/acts/111453>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi "Bezorilik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori, 1-band, 1-xatboshi.lex.uz // www.lex.uz/

Bezorilik rus tilidan “xuliganstvo” tarzida tarjima qilinsada, mazkur atama ruscha hisoblanmaydi. “Xuliganstvo” atamasi London polisiyasining 1894-yilgi raportida qayd etilgan⁷ bo‘lib, mazkur atamaning kelib chiqishi borasida turli versiyalar mavjud. Ularning biriga ko‘ra mazkur atama XIX asrda Londonda yashagan irlandiyalik o‘g‘ri va bezori Patrik Xuligen nomi bilan bog‘liq⁸. Yana bir versiyaga ko‘ra mazkur atama irlandcha “houlie” atamasi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur atama “alkogolli maishat” ma‘nosini anglatadi. Shu bilan birga “xuligan” atamasini XIX asrda Londonning Aulington hududida jinoiy faoliyat olib borgan “Nooleu gang” jinoiy guruhi nomi bilan bog‘lashadi⁹.

Bezorilik motivi bilan sodir etiladigan jinoyatlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, bunday jinoyatlarni boshqa jinoyatlardan farqlashda, aybdor qasdining mohiyati va nimaga qaratilganidan, sodir etilgan harakatning motivi, maqsadi va muayyan holatlarga e‘tibor berish lozim hisoblanadi. Amaliyotda bezorilik motivini aniqlash va boshqa motivlardan (rashk, qasd va hk.) farqlash mezonlarini bilmaslik ko‘pgina jinoyatlarning noto‘g‘ri kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi. O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumining “Bezorilik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2002 yil 14 iyundagi Qaroriga ko‘ra, bezorilik, asosan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslikda ifodalangan harakatlar tushunilishi aytib o‘tilgan¹⁰.

Bezorilikka ta‘rif berar ekan, bezorilik - ko‘pchilikning tinchligini buzish, odamlarni bezdiruvchi xatti-harakat. Shaxsning jamoat tartibini qo‘pol ravishda buzish va jamiyatga oshkora hurmatsizlik ko‘rsatishdan iborat xatti-harakati¹¹. Bezorilik – ijtimoiy tartibni, ko‘pchilikning tartibini buzayotganligini anglashi lozim hisoblanadi¹², deb ko‘rsatiladi ilmiy adabiyotlarda.

Bezorilik jinoyati va mayda bezorilik huquqbuzarligi o‘rtasidagi farqni aniqlashda, ushbu jinoyatning obyektiv tomonini ifodalovchi shaxsni urish-do‘pposlash, unga engil tan jarohati etkazish yoki o‘zganing mulkiga ancha miqdorda shikast etkazish yoxud uni ancha miqdorda nobud qilish harakatlari bor yoki yo‘qligiga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi. Ulardan birontasining yo‘qligi harakatni mayda bezorilik deb baholashga asos bo‘ladi. Jumladan, mayda bezorilik jamoat joylarida uyatli so‘zlar aytish, so‘kinish, behayo xatti-harakatlar qilish, odamlarga shilqimlik qilish kabi jamiyatda yurish-turish qoidalarini ochiqdan-ochiq mensimaslik harakatlarida namoyon bo‘lsa, bezorilik jinoyatida aybdor harakatlari bevosita jamoat tartibi, shaxs sog‘ligi, o‘zganing mulki kabi Jinoyat kodeksi bilan qo‘riqlanadigan obyektlarga tajovuz qilishda ifodalanadi.

Jamoat tartibi mayda bezorilikning qasd qilish obyekti hisoblanadi. Jamoat tartibi jamoat joylarida huquq me‘yorlarini saqlashga asoslangan munosabatlardir. Jamoat tartibi faqat huquqiy me‘yorlarga emas, balki boshqa ijtimoiy me‘yorlar: axloq, urf-odat, jamoat tashkilotlarining me‘yorlari bilan ham mustahkamlanadi. Shu sabab bu borada ham mutlaqo

⁷ Daily News (London), Tuesday April 24. 1894.

⁸ The Penny Illustrated Paper and Illustrated Times Saturday august –13, 1989.

⁹ Жунушова Г.Б. Уголовная ответственность за хулиганство по законодательству Кыргызской Республики: учебное пособие / под общ. ред. Л.Ч. Сыдыковой. – Бишкек: КРСУ, 2014. – С.21.

¹⁰ “Bezorilik ishlari buyicha sud amaliyoti tugrisida”gi 2002-yil 14-iyundagi qaror, 1-band, 1-kism. [lex.uz // www.lex.uz/](http://www.lex.uz/)

¹¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Begmatov E. va b. Madvaliyev A. taxriri ostida. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.- Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti. 1-tom. 2006. –B.212.

¹² “Bezorilik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2002-yil 14-iyundagi qaror, 1-band, 1-kism. [lex.uz // www.lex.uz/](http://www.lex.uz/)

yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda¹³.

Fuqarolar osoyishtaligi va jamoat tartibini buzuvchi xatti-harakat huquqbuzarlikning obyektiv tomonini tavsiflaydi. Bular: jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish; fuqarolarga haqoratomuz tegajog'lik qilish, ya'ni boshqa shaxsning obro' e'tibori, izzat-sha'nini haqoratlovchi hamda ularning oromini buzuvchi shilqimlik xatti-harakati bo'lishi mumkin. Bunga, shuningdek, fuqaroni inson qadr-qimmatini haqoratlovchi suhbatga zo'rlab tortish, shilqimlik bilan uning qo'lini siltash yoki kuch bilan qo'lidan ushlash, bosh kiyimini yulqib olish; sigareta tutunini uning yuziga puflash va hokazolarni kiritish mumkin. Mayda bezorilik obyektiv tomonining muhim belgisi vaziyat, makon, vaqt hisoblanadi.

Biroq jamoatga yoki inson sha'niga nisbatan mensimaslik munosabati (uyatli so'zlar yozish, maysazor, gulzorlarni buzish va hokazolar) ma'lum bo'lib qolishini e'tiborga olib, huquqbuzarlik yashirincha bajarilgan bo'lishi mumkin. Mayda bezorilik subyektiv tomondan qasddan va ko'pincha oshkora amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Aybdor qonunga qarshi xatti-harakat qilayotganini tushunadi va shuning natijasida yomon oqibatga olib kelishiga – jamoat tartibi va fuqarolar osoyishtaligi buzilishiga yo'l qo'yadi.

Jinoyat huquqiga oid manbalarda ta'kidlanganidek, bezorilikning tajovuz obyekti bo'lib jamoat tartibi, ya'ni amaldagi huquq va ijtimoiy (axloq) normalariga rioya qilish orqali fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini, ko'pchilikning, ommaning xavfsizligini ta'minlashga, hududdagi va obyektidagi jismoniy va yuridik shaxslarning normal faoliyat ko'rsatishi, insonlarning mehnat qilishi va dam olishlari uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan, shuningdek ularning sha'ni, qadr-qimmatini, milliy qadriyatlarni va ijtimoiy axloq normalarini hurmat qilish hamda ularning talablariga rioya etish bo'yicha asosan jamoat joylarida vujudga keladigan va taraqqiy etib boradigan ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Bezorilikning obyektiv tomoni belgilari quyidagilarda ifodalanadi:

birinchidan, jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, ya'ni shaxs o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvorning mavjudligi bilan boshqalarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga zarar etkazadi;

ikkinchidan, urish-do'pposlash, ya'ni jismoniy kuch ishlatish orqali boshqa shaxslarni badaniga shikast etkazmagan holda zarba berish va og'riq etkazishda;

uchinchidan, badanga engil shikast etkazish, ya'ni sog'lig'ning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatini uncha ko'p davom etmaydigan turg'un tarzda yo'qotishga olib kelmaganda;

to'rtinchidan, o'zganing mulkiga shikast etkazish yoxud nobud qilish ancha zarar etkazish, ya'ni mulkni, uning muayyan bir qismini qisman yoki butunlay yaroqsiz holga keltirish orqali zarar etkazilishda.

Shuni alohida qayd etish joizki, tahlil qilingan "qilmishni Jinoyat kodeksi 277-moddasining 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilish uchun yuqorida ko'rsatilgan oqibatlarning barchasi bir vaqtda mavjud bo'lishi talab etilmaydi"¹⁴.

¹³ Narbutayev E., Yettibayev G. Faoliyatni ayrim turlarini litsenziyalash va ruxsat berish tartibotlarini yanada liberallashtirishning ayrim masalalari //Obmestvo i innovatsii. 2021. – T. 2. – №. 8/S. – S. 385-392.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 14.06.2002-yildagi 9-son. <https://lex.uz/docs/1452654>

Bezorilikning subyektiv tomoni mazkur qilmishning qasddan sodir etilishida namoyon bo'ladi. Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq bezorilik jinoyatning subyekti bo'lib, 277-moddasi birinchi qismi bo'yicha 16 yoshga to'lgan 277-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlari bo'yicha esa 14 yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Turli sharoitda bir xil xatti-harakat turlicha ahamiyat kasb etadi (masalan, jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish mayda bezorilikka xos voqea, xuddi shunday xatti-harakat tantanali majlis, bayram va boshqa ommaviy tadbirlarda jinoyat tarzida jazolanuvchi bezorilik sifatida tavsiflanishi mumkin (JKning 277-moddasi 3-qismi "v" bandi). Mayda bezorilik ko'pincha jamoat joylarida amalga oshiriladi, ya'ni ommaning qabul qilish idrokiga tayaniladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Jinoyat kodeksi 277-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida bezorilikni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etganlik uchun jazo belgilangan. *Birinchidan*, mazkur moddaning ikkinchi qismiga muvofiq bezorilik: a) badanga o'rtacha og'ir shikast etkazib; b) bir guruh shaxslar tomonidan; v) sovuq qurol yoki kishining sog'lig'i uchun amalda shikast etkazishi mumkin bo'lgan narsalarni (qurol sifatida) namoyish qilib, ularni qo'llash bilan qo'rqitib yoxud qo'llab; g) o'z mazmuniga ko'ra umum e'tirof etgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikda ifodalanuvchi o'taketgan behayolik bilan; d) yosh bola, qariya, nogironligi bo'lgan shaxs yoki o'z ahvoldagi shaxslarni xo'rlab; e) ko'p miqdorda zarar etkazib, birovning mulkini nobud qilib yoki unga shikast etkazib sodir etilishi.

Ikkinchidan, mazkur moddaning uchinchi qismiga muvofiq bezorilik: a) takroran yoki xavfli residivist tomonidan; b) o'qotar qurolni namoyish qilib, uni qo'llash bilan qo'rqitib yoki qo'llab; v) ommaviy tadbirlar o'tkazilayotgan vaqtda; g) jamoat tartibini saqlash vazifasini bajarib turgan hokimiyat vakili yoki jamoatchilik vakiliga yoxud bezorilik harakatlarining oldini olish chorasini ko'rgan boshqa fuqarolarga qarshilik ko'rsatib sodir etilishi og'irlashtiruvchi holat sifatida qaraladi.

Bizga ma'lumki, jamiyatda pul va boylik tushunchalari mavjud bo'lar ekan, shaxslarning birdan asossiz ravishda boyib ketishga bo'lgan tavakkalchilik harakatlari doimo mavjud bo'ladi va ularning bu intilishlaridan foydalanuvchi va ularni motivasiya qiluvchi qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etuvchi shaxslar ham mavjud bo'laveradi. Shunday ekan bunday jamiyatda tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni butunlay yo'q qilib bo'lmaydi. Mazkur jinoyat ham jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar turiga kiradi.

Jamiyatda haddan ortiq qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar, xususan, onlain qimor o'yinlarning avj olishi jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga ziyon etkazadi, shaxslarning bunday o'yinlarga bo'lgan qaramligini haddan tashqari oshirib yuboradi va jamiyatni psixologik jihatdan zaharlaydi, natijada shaxslarning ijtimoiy, kasbiy, moddiy va oilaviy hayotini to'liq izdan chiqaradi.

O'zbekistonda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish va o'tkazish O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 278-moddasida jinoyat sifatida belgilab qo'yilgan. Ana shunday o'yinlarda qonunga xilof ravishda ishtirok etish, shuningdek voyaga etmagan shaxsni qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarda ishtirok etishga jalb qilish O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodekshing 191-moddasida ma'muriy huquqbuzarlik sifatida e'tirof etilgan.

Bir qarashda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va o'tkazish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi shundan iboratki, qimor o'yinlarini tashkil etish hamda o'tkazish

bilan bog'liq bo'lgan qonunga xilof faoliyat naqd pullarning bankdan tashqari muomalasi ko'payishiga, soliqlar va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlanishiga ko'maklashadi va shu tariqa mamlakatning iqtisodiy asoslariga putur etkazadi va jamoat tartibi hamda xavfsizligini buzishga olib keladi.

Biroq, mazkur oqibatning o'zi Jinoyat kodeksining 278-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning ijtimoiy xavfliligini belgilovchi yagona mezon emas. Bundan tashqari, qimor o'yinlariga jalb etish fuqarolar, ayniqsa, yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek jamoat tartibining buzilishiga, spirtli ichimliklar me'yordan ortiq iste'mol qilinishiga va ijtimoiy xavfli qilmishlar (odatda, shaxsga qarshi jinoyatlar va turli o'g'irliklar), shuningdek suitsidlar sodir etilishiga zamin yaratadi.

Ma'lumot uchun, ushbu o'yinlar, ayniqsa, "onlayn" qimor bilan bog'liq jinoyatlar 2022 yilda 55 ta, 2023 yilda 86 ta, 2024 yilda 103 ta, 2025 yilning 6 oyida 90 tani tashkil etgan.

Mutaxassislarning fikricha, bunday o'yinlar insonda qaramlikni vujudga keltirib, katta miqdordagi pul mablag'lari sarflashiga va ayrim fuqarolarning o'z joniga qasd qilish, firibgarlik, byudjet mablag'larni talon-toroj qilish kabi harakatlar sodir etilishiga sabab bo'lmoqda.

"Onlayn qimor"da yutqazganligi sababli 2024 yilda 6 nafar va 2025 yilning 6 oyida 6 nafar fuqaro o'z joniga qasd qilib vafot etgan. Ularning barchasi 25 yoshgacha bo'lgan yoshlardir¹⁵.

A.Loxviskiy mazkur qilmishni jinoyatlar sirasiga qo'shishni qo'llab quvvatlab shunday deydi: "qimor o'yinlari albatta iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi; qimor o'ynovchilar vaqtlarini jamiyat boyligini oshirish uchun sarflamaydilar; pul shunchaki qo'ldan qo'lga o'tadi, hech bir ishlab chiqarish jarayoni mavjud bo'lmaydi, mamlakatda rivojlanish bo'lmaydi; shaxslarning yaqin soat ichida boyib ketish umidini kuchaytirib asosiy mehnatidan ajratib qo'yadi, minglab odamlar qashshoqlashadi, bir shaxs boyib ketadi. Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinning bir prinsipi bor: oson qo'lga kiritilgan boylarning qadr-qimmati bo'lmaydi"¹⁶.

Psixologiya ham shaxsning tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarga ruju qo'yish shaxsda jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirishini, bu esa yakunda suitsid bilan yakunlanishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Olimlar tomonidan qimor va tavakkalchilikka berilib ketgan shaxs tomonidan qasddan badanga shikast etkazish, o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish, voyaga etmagan shaxsni g'ayriijtimoiy harakatlarga jalb qilish, bezorilik, o'qotar qurol, o'q-dorilar, portlovchi moddalar yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash, egalik qilish, saqlash va boshqa jinoyatlar sodir etish ehtimoli yuqori ekanligini ko'plab manbalarda bayon etadilar¹⁷.

Qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni kriminalizatsiya qilinishi natijasida nafaqat mazkur o'yin biznesining qonunga xilof tashkil etilishini profilaktika qilish, balki bir

¹⁵ <https://sputniknews.uz/20221203/qimor-va-tavakkalchilikka-asoslangan-oyinlar-uchun-javobgarlik-belgilanmoqda-30452021.html>

¹⁶ Лохвицкий А. Курс русского уголовного права. СПб., 1871. –С. 455 – 456.

¹⁷ Ильяшенко А.Н., Морчев И.А. Проблемы совершенствования практики применения уголовно-правовых норм, используемых при привлечении к ответственности за криминальное насилие в семье // Рос. следователь. 2007. – № 8; Побегайло Э.Ф., Гордуз Н.А. Уголовно-правовые средства предупреждения тяжких насильственных преступлений (проблемы использования норм «с двойной превенцией») // Правовые проблемы профилактики правонарушений: тр. Акад. МВД СССР. –М., 1995. –С. 41; Саркисова Э.А. Уголовно-правовые средства предупреждения преступлений. Минск, 1975. – С. 81 – 82.

vaqtning o'zida yuqorida ta'kidlangan jinoyatlar yuzasidan ham profilaktika o'tkazish va ularning sodir etilish darajasini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'linadi. Shu bilan birga, qimor o'yinlariga ruju qo'ygan shaxslar tomonidan zo'rlik ishlatish yo'li bilan turli past niyatlarda sodir etiladigan jinoyatlarning ham oldi olinadi.

O'zbekiston Respublikasida sodir etilayotgan jinoyatlar statistikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Jinoyat kodeksining 278-moddasida jinoyat sifatida belgilangan "Qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni tashkil etish hamda o'tkazish" jinoyati jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi va axloqqa qarshi ayrim turdagi bir-biriga bog'liq jinoyatlar bilan birgalikda sodir etilayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Misol keltiradigan bo'lsak, D.ismli shaxs tomonidan muayyan bir xonadon ijaraga olib qimor o'yinlarini o'tkazish uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Shu bilan bir qatorida mazkur xonadonda qimor o'yinlari bilan bir qatorda fohishalik bilan shug'ullanish holatlari sodir etiladi. Har haftaning yakshanbi kuni qimor o'yinlari tashkil etib kelinadi. Mazkur holat 3 oy davom etib, umumiy holatda 12 marotaba mazkur xonadonda qimor o'yinlari tashkil etiladi. Oxir oqibat bu harakatlarga huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan chek qo'yiladi.

Mazkur qilmishlarning ijtimoiy xavfi, shuningdek ularning bugungi kunda uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari yoki "foyda oluvchi asosiy nazorat obyekti"ga aylanganligi ko'pgina kriminologik tadqiqotlarda qayd etilmoqda. Qimorxonalar, fohishaxonalar, fohishalar va qo'shmachilar faoliyatini, narkotik vositalar bilan savdo-sotiq qilish, sutxo'rlik kabi yangi turdagi jinoiy va boshqa ijtimoiy xavfli faoliyat turlarini o'zlashtirib borishi va nazorat ostiga olishi bugungi kundagi korrupsiyalashgan uyushgan jinoiy tuzilmalar ijtimoiy xavfini belgilovchi asosiy xususiyatlardan biridir¹⁸.

Shuni qayd etish joizki, ushbu sohadagi ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlarning latentlik darajasi yuqoriligi avvalambor ularning korrupsiyalashgan uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyati bilan bog'liqligidir. Tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, hozirgi kunda kriminologik ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy determinantlar ko'p va xilma-xil bo'lib, ular aholining qonun bilan taqiqlangan mahsulot va xizmatlarga bo'lgan nuqsonli ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etishga ixtisoslashgan uyushgan jinoiy tuzilmalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ruhiy jihatdan zaif shaxslardan foydalanishiga imkon bermoqda¹⁹. Bunday uyushgan jinoiy tuzilmalar sodir etayotgan jinoyatlarning "latentlik" darajasi juda yuqoridir. Huquqni muhofaza qilish organlari asosan tashkil etilganidan buyon uzoq vaqt o'tmagan, uyushganlik darajasi uncha yuqori bo'lmagan hamda o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik jinoyatlarini sodir etgan uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatini fosh etmoqdalar.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. R.Kabulov, A. A.Otajonov, D.Yu. Payziyev va boshq. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / - T.:O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016. - 330 b.

¹⁸ Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta'minlash: Yurid. fan. d-ri. ... dis. avtoref. -T., 2006. - B.17.

¹⁹ Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta'minlash: Yurid. fan. d-ri. ... dis. avtoref. -T., 2006. - B.34-35.

2. Преступления против общественной безопасности и общественного порядка : учебное пособие для вузов / А. В. Наумов [и др.] ; ответственные редакторы А. В. Наумов, А. Г. Кибальник. – 6-е изд., перераб. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2024. – 16 с.
3. Далгалы, Т. А. Преступления против общественной безопасности. Криминологический, международный и сравнительно-правовой аспекты : учебное пособие для вузов / Т.А.Далгалы, Д.Ж.Гостькова. – Москва : Издательство Юрайт, 2024. – 12 с.
4. Уголовное право. Особенная часть: преступления против общественной безопасности и общественного порядка : учебник для вузов / В. М. Алиев [и др.] ; под общей редакцией В. И. Гладких, А. К. Есяяна. — Москва : Издательство Юрайт, 2024. — 32 с. — (Высшее образование). — ISBN 978-5-534-13708-8. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/543900>
5. <https://lex.uz/acts/111453>
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2002-yil 14-iyundagi “Bezorilik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori, 1-band, 1-xatboshi.lex.uz // www.lex.uz/
7. Daily News (London), Tuesday April 24. 1894.
8. The Penny Illustrated Paper and Illustrated Times Saturday august –13, 1989.
9. Жунушова Г.Б.Уголовная ответственность за хулиганство по законодательству Кыргызской Республики: учебное пособие / под общ.ред. Л.Ч.Сыдыковой. –Бишкек: КРСУ, 2014.–С.21.
10. “Bezorilik ishlari buyicha sud amaliyoti tugrisida”gi 2002-yil 14-iyundagi karor, 1-band, 1-kism. lex.uz // www.lex.uz/
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Begmatov E. va b. Madvaliyev A. taxriri ostida. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.-Toshkent. Davlat ilmiy nashriyoti. 1-tom. 2006. –B.212.
12. “Bezorilik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2002-yil 14-iyundagi qaror, 1-band, 1-kism. lex.uz // www.lex.uz/
13. Narbutayev E., Yettibayev G. Faoliyatni ayrim turlarini litsenziyalash va ruxsat berish tartibotlarini yanada liberallashtirishning ayrim masalalari //Obщество i innovatsii. 2021. – Т. 2. – №. 8/S. – S. 385-392.
14. <https://sputniknews.uz/20221203/qimor-va-tavakkalchilikka-asoslangan-oyinlar-uchun-javobgarlik-belgilanmoqda -30452021.html>
15. Лохвицкий А. Курс русского уголовного права. СПб., 1871. –С. 455 – 456.
16. Ильяшенко А.Н., Морчев И.А. Проблемы совершенствования практики применения уголовно-правовых норм, используемых при привлечении к ответственности за криминальное насилие в семье // Рос. следователь. 2007. –№ 8; Побегайло Э.Ф., Гордуз Н.А. Уголовно-правовые средства предупреждения тяжких насильственных преступлений (проблемы использования норм «с двойной превенцией») // Правовые проблемы профилактики правонарушений: тр. Акад. МВД СССР. –М., 1995. –С. 41; Саркисова Э.А. Уголовно-правовые средства предупреждения преступлений. Минск, 1975. – С. 81 – 82.
17. Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta‘minlash: Yurid. fan. d-ri. ... dis. avtoref. –Т., 2006. – В.17.
18. Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliy-huquqiy ta‘minlash: Yurid. fan. d-ri. ... dis. avtoref. –Т., 2006. – В.34–35.